



The Role of Modern International Relations Theories in Iran's Foreign Policy

Kamronbek RADJABOV¹

The University of World Economy and Diplomacy

ARTICLE INFO

Article history:

Received December 2024

Received in revised form

15 December 2024

Accepted 20 January 2025

Available online

15 February 2025

Keywords:

constructivism,
Western capitalist
construction,
neo-Marxism,
"neither East nor West,
only Islam,"
secular feminism,
religious feminism,
exploitation.

ABSTRACT

This article examines the foreign policy of the Islamic Republic of Iran through the theories of Constructivism, feminism, and neomarkism. Analytical results show that in a deeper understanding of the foreign policy of the Iranian state, the role of these theories within the framework of international relations, importance is attached to itself.

2181-1415/© 2025 in Science LLC.

DOI: <https://doi.org/10.47689/2181-1415-vol6-iss1/S-ppv160-168>

This is an open access article under the Attribution 4.0 International (CC BY 4.0) license (<https://creativecommons.org/licenses/by/4.0/deed.ru>)

Eron tashqi siyosatida zamonaviy xalqaro munosabatlar nazariyalarining o'рни

Kalit so'zlar:

konstruktivizm,
g'arbona kapitalistik
konstruksiya,
neomarksizm,
"na sharq na g'arb faqat
islom",
dunyoviy feminizm,
diniy feminizm,
ekspluatatsiya.

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada Eron Islom Respublikasining tashqi siyosati, konstruktivizm, feminizm va neomarksizm nazariyalari orqali ko'rib chiqildi. Tahliliy natijalar shuni ko'rsatadiki, Eron davlatining tashqi siyosatini chuqurroq anglab yetishda, xalqaro munosabatlar doirasidagi, ushbu nazariyalarning o'рни, o'ziga xos ahamiyat kasb etadi.

¹ PhD student, The University of World Economy and Diplomacy.

Роль современных теорий международных отношений во внешней политике Ирана

АННОТАЦИЯ

Ключевые слова:

конструктивизм,
западная
капиталистическая
конструкция,
неомарксизм,
«ни Восток, ни Запад,
только ислам»,
светский феминизм,
религиозный феминизм,
эксплуатация.

В данной статье рассматривается внешняя политика Исламской Республики Иран через призму теорий конструктивизма, феминизма и неомарксизма. Результаты анализа показывают, что при более глубоком понимании внешней политики иранского государства роль этих теорий в рамках международных отношений приобретает особое значение.

Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm ijtimoiy nazariya bo'lib, xalqaro munosabatlarning muhim jihatlari, g'oyaviy omillar ta'sirida shakllantirilishini ta'kidlaydi. Insonlar ma'lum bir g'oyalarni yaratadilar va bu mafkura doirasida odamlar to'planishadi, bu esa o'z o'rnida voqelikga ta'sir etuvchi hodisalarga olib keladi.

1989-yilda Amerikalik olim Nikolas Onuf takidlashicha xalqaro munosabatlar obektiv voqelik emas, balki biz tomonimizdan yaratilgan olam hisoblanadi. Keynchalik A. Vend, F. Kratafil, M. Finnemor, T. Xopf kabi ko'pgina olimlar uning izidan borib, konstruktivizm adabiyotlarini boyitishga hissa qo'shishdi. Konstruktivistlar realizm va liberalizmga qarshi o'laroq, o'zlarining nazariyalarini xalqaro munosabatlar doirasida qanchalik muhim o'rin tutganligini isbotlab qo'yidilar. Aynan ushbu maktab 1990-yillarda katta mashxurlikga erishdi. Bunga sabab dunyo sahnasidagi siyosiy holatni o'zgarganligi konstruktivistlar rivojini quvvatlantirdi.

Konstruktivistlar realizmdagi individual ontologiyani inkor qilib, urg'uni ijtimoiy ontologiyaga hamda intersub'yektiv omillarga beradilar. Bu degani ular shaxs ro'lini inkor qiladi degani emas, balki yagona shaxs va jamiyatni uyg'unlashtirib yuboradilar. Chunki biron narsaning yoki bo'lmasa davlat, mamlakat, hamda millatning konstruksiyasini yaratishda, bir tomondan (yaratilayotgan tomondan) ijtimoiy ong hodisasi bilan qorishib ketsa, ikkinchi tomondan (yaratiladigan obekt tomondan) tarixiy, diniy, ijtimoiy, madaniy-ma'rifiy komponentlarning qorishishi natijasida yaratiladi.

Eron Islom Respublikasiga keladigan bo'lsak, konstruksiyalar uchga bo'linadi. birinchisi dunyo miqyosidagi, yani umumiy yaxlit konstruksiya mavjud bo'lib, kopitalistik g'arb mamlakatlari taklif qilgan konstruksiya hisoblanadi, aynan global farmatda hisoblanadi. Ikkinchisi esa sharq mamlakatlariga hos bo'lgan umumiy tarixiy uyg'unlik inikosi oqibatidagi idrok mahsulidir. Uchinchidan Eron Islom Respublikasining siyosiy konstruksiyasi o'rin egallaydi.

1) G'arbona kapitalistik konstruksiya Eronga nisbatan boshqa davlatlar ongida salbiy obrazga asoslangan teroristik va buzg'unchi faoliyat yurutuvchi tatalitar davlat sifatidagi konstruksiyani singdirishga qaratilgan bo'lib, ko'proq bu konstruksiyaning muallifi AQSH hisoblanadi. Shuni takidlab o'tish joizki, Amerika bunday konstruksiyani boshqa davlatlarga singdirish uchun qaratilgan vazifasini a'lo darajada bajarib kelmoqda. Ko'pgina davlatlar, hamda xalqlarda bunday dushman obrozi yorqin yaratishda Amerika ancha harakat qildi. Aksariyat mamlakatlarga mansub xalqlar, Eron konstruksiyasini tasvirlashda doimiy terorchilik faoliyati bilan shug'ullanuvchi,

fundamentalizm g'oyasiga berilib ketgan, katta xatar tug'diruvchi mamlakat sifatida qabul qilishadi. Aynan Eron mamlakati to'g'risida, chunki Amerika xalqi Eron davlati va xalqini alohida emas, yaxlit holatda idrok etadi. Bunday holatga Eronning o'zi ham sababchi, chunki 1979–1989-yillardagi “islom inqilobi exporti” g'oyasi, xalqlarda Eronga nisbatan qo'rquv va nafrat uyg'otdi. Shuni takidlab o'tish joizki, ushbu salbiy konstruksiya jamoatchilik ongida qattiq o'rnashib oldi, hattoki undan keyingi yillarda Eronning boshqa mamlakatlar nazdida ijobiy konstruksiya yaratish harakatlari kutilgan natijalarni bermadi. Keyinchalik yadroviy qurol ishlab chiqarish harakatlari, Eronni global miqyosdagi xavf obektiga aylantirdi.

Agar bu xalqaro munosabatlar doirasidagi hodisani chuqur va obyektiv tahlil qiladigan bo'lsak, manzara ancha oydinlashadi. Masalan AQSH 3 mingdan oshiq yadro kallaklariga ega, Buyuk Britaniya esa 500 dan ortiq, lekin shunday bo'lsada, ulardan ko'ra Eronning hali ishlab chiqishga ulgurmagan yadroviy programmasi butun dunyo uchun katta xavf tug'dirishi konstruksiyasi aniq-ravshan yaratilgan. Bu degani biron obyektning konstruksiyasini yaratishda boshqa obyekt tomonidan psixologik monopulyatsiyon operatsiyalar amalga oshirilishi natijasida, surat boshqacha ko'rinishda aks etishi mumkin. Lekin Eron konstruksiyasini yaratishda boshqa tomondan yondashiladigan bo'lsa, misol uchun uning tili, adabiyoti, boy tarixi va madaniyati, ilm-fan uchun qo'shgan hissasini o'rgangan holda konstruksiya yaratilsa, Eron to'g'risida anchagina ijobiy qisimlardan iborat konstruksiya paydo bo'ladi. Aynan shu jihatlari orqali, Eron o'zining konstruksiyasini boshqa davlatlarga singdirish uchun chora-tadbirlar olib boradi.

2) Eron davlatining konstruksiyasini yaratishdagi sharqoni usul tubdan farq qiladi, hamda Eron islom respublikasini ijobiy tomondan idrok etish elementlari ham mavjud. G'arb mamlakatlari uchun Eron mutloq salbiy o'rin egallagan bo'lsa, sharq mamlakatlari uchun bu obraz ham ijobiy ham salbiy tomonlarning qorishib ketishi natijasida hosil bo'lgan konstruksiya hisoblanadi. Avallambor shuni takidlab o'tish joizki, sharq mamlakatlari, xususan, Yaqin Sharq va Markaziy Osiyo davlatlari bilan Eron tarixdan o'zaro munosabatda bo'lib kelgan, sharq davlatlari madaniy jihatdan bir-biriga yaqin hisoblanadi. Lekin bu yaqinlik yaxshi munosabat kafolati bo'lib hizmat qilmaydi.

Arab mamlakatlari va Markaziy Osiyo mamlakatlari davlat boshqaruv san'atini, qadimgi Eron imperiyasidan andoza qilib olganligi ma'lum. Eron nafaqat davlatchilik sohasida ta'sir ko'rsata olgan, balki, til va adabiyot yo'nalishlari bo'yicha ham kuchli ta'sir etib kelgan. Hattoki Markaziy Osiyo davlatlarining odatlari hamda bayramlari ham qadimgi Eron mamlakatidan meros bo'lib qolgan. Bunga Navruz bayrami misol bo'la oladi. Bu bayram barcha Markaziy Osiyo mamlakatlarida keng nishonlanadi. Shuningdek adabiyot va til nuqtai nazaridan qaraydigan bo'lsak, ko'pgina o'xshashliklarni topamiz. Chunki uzoq tarix mobaynida fors tili saroy va adabiyot tili bo'lib hizmat qilgan. Agar bironta shaxs intellektual yo'lni tanlagan bo'lsa, u albatta fors tilini bilishi zarur edi. Bundan chiqadiki, Fors madaniyati ko'pgina Markaziy Osiyo davlatlarining uruf-odatlariga singib ketgan va ko'p hollarda yashirin impulsiv darajada namoyon bo'ladi. Markaziy Osiyo davlatlari qadimgi forslardan ko'pgina sohalaridagi tajribasini o'zlashtirib, keyin uni o'zlariga moslashtirgan desak mubolag'a bo'lmaydi.

Eron Islom Respublikasiga nisbatan Markaziy Osiyo davlatlarida qanday konstruksiya yaralganligi to'g'risida quyidagicha natija olishimiz mumkin. Albatta barcha Markaziy Osiyo davlatlarida bir hil konstruksiya barpo bo'lmagan, lekin ularning asoslari juda o'xshashdir. Markaziy Osiyo davlatlari Eron Islom Respublikasini, ikki qismga bo'lib

idrok qiladi, yani Eron hukumati va Eron xalqi sifatida ahohida. Tepada zikr etilgan o'shashliklarni ijobiy tusda Eron xalqiga tegishli nisbat sifatida qabul qilishadi. Ammo bunday madaniy o'xshashlikni Markaziy Osiyo xalqlarining hissiy ong darajasida deyish mumkin. Chunki Eron hukumati sifatidagi qismi ikkinchisining bunday darajaga kelib qolishiga ta'sir qilgan. Yani Eron hukumatining qattiq siyosatidan (1979–1990) Markaziy Osiyo davlatlarining Eronga nisbatan yopiq siyosati va mafkuraviy xavfsirash oqibatida Eron xalqi bilan Markaziy Osiyo xalqlari o'rtasidagi to'siq mana shu oqibatlarga olib keldi.

Lekin oxirgi yillarda Eron bilan Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida integrativ harakatlar kuzatilmoqda. 2023-yildan boshlab sayyohlik hamda ishbilarmonlar uchun vizasiz rejimlar joriy qilinganligi, bevosita buning belgisidir. Agar, Eron va Markaziy Osiyo mamlakatlari bilan munosabat shu yo'sinda davom etib, aloqalar mustahkamlashib borsa, iqtisodiy jihatdan katta o'sish kuzatilishi mumkin. Lekin shu bilan birgalikda, Eron davlatining ta'siri kuchayib ketishi mumkin. Chunki iqtisodiy rivojlanish bilan bir qatorda Eron parastlik g'oyalari kirib kelishi ehtimoldan holi emas. Chunki O'rto Osiyo davlatlarida, ayniqsa O'zbekiston, Tojikiston, Qirg'iziston va Turkmaniston xalqlarida islomiy davlat barpo etish g'oyalari latent holatda turibdi.

Islom davlatlari nigohida Eron Islom Respublikasining konstruksiyasini yartishdagi eng muhim komponentlardan biri bu diniy omil hisoblanadi. Aksariyat islom davlatlarining Eron bilan identifikatsiyasining uzulish nuqtasi bu diniy mazhabdagi tafovutdir. Eron Islom Davlatining shia mazhabida ekanligi, asosiy suniy mazhabdan iborat bo'lgan xalqlarning nafratini uyg'otishga sabab bo'ladi. Agar Eron davlati suniy mazhabda bo'lmaganda edi, ko'pgina davlatlar Eron Islom Respublikasini har tamonlama qo'llab quvatlagan bo'lishardi. Bunday o'zaro munosabatlar konstruktivizm nuqtai nazaridan paradoksal vaziyatni keltirib chiqaradi. Yani Eron bilan Rossiya va Xitoy munosabatini tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, paradoksal holat nimada ekanligi oydinlashadi. Eronning tashqi aloqalari musulmon bo'lgan xalqlardan ko'ra islom nuqtai nazaridan g'ayridin davlatlar bilan yaxshiroq. Oyatulloh Ruhulloh Humayniy belgilab bergan g'oyaviy "na sharq na g'arb faqat islom" kredosi yillar davomida ish bermagani sababli "na sharq na g'arb va na islom faqat omon qolish" g'oyasi Eron Islom Respublikasining tashqi siyosatida namoyon bo'lmoqda. Eron tashqi siyosatda boshqa vektorga o'tishi jarayoni Eron xalqining bunday regid siyosiy positsiyasiga munosabatining yaqqol namunasidir. Chunki yillar davomida Eron qattiq ushlab olgan islomiy aqidaga asoslangan siyosat, Eron xalqi uchun naf bermadi, faqatgina iqtisodiy qoloqlik va ma'naviy og'riq berdi holos. Shu sababdan Eron bor imkoniyatidan maksimal darajada foydalanmoqda.

3) Eron tashqi siyosatini olib borishda va xalqaro munosabatlaridagi o'ziga hos yo'nalganlik, hamda aloqalar o'rnatishda, Eronning o'ziga hos konstruksiyasi mavjud. Eron yaqin sharqda hamda Markaziy Osiyoda o'zining tarixiy gegemonligini tiklashga qaratilgan go'yalarini yashirin tarzda ilgari suradi. Diniy jihatdan esa Eron Islom Respublikasi diniy davlat sifatida boshqa islomiy yoki dunyoviy (asosan islomga e'tiqod qiluvchilardan tashkil topgan xalqlar) mamlakatlar uchun namuna ekanligini takidlaydi. Eron o'zini qudratli yetakchi davlat hamda islom qo'riqchisi sifatida namoyon qilib kelmoqda.

Eron Islom Respublikasida millatchilik g'oyalari alohida o'rin tutgan bo'lib, Eron Yaqin Sharq hamda Markaziy Osiyo mamlakatlarining ilmiy-ma'rifiy va madaniy jihatdan otasi ekanligini olg'a surmoqda. Eron o'z-o'zini konstruksiya qilishda, qadimgi Fors

imperiyasiga murojat qiladi. Eron xalqida oliy millat tushunchalari ham yaqqol namoyon bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, Eron Islom Respublikasi O'rta Osiyo uchun juda muhim geosiyosiy figura bo'lib hizmat qilishini ko'p bora takidlaydi, va o'zining bu mintaqadagi o'rnini bo'rtirib ko'rsatishga urinadi. Lekin shu jihatni yoritib o'tish lozimki, Eron o'zini qudratli davlat sifatida konstruksiyalashga asosi mavjud. Chunki Eron Amerikaga rad javobini bergan sanoqli davlatlardan hisoblanadi. Qariyb qirq yildan oshiq vaqt davomida juda qattiq sanksiyalarga uchrab kelayotgan bo'lsada, iqtisodiy jihatdan o'zini ushlab turibdi, hattoki hech qanday sanksiyalarsiz faoliyat yuritayotgan Markaziy Osiyo davlatlaridan iqtisodiy jihatdan ancha ustunlik qiladi. Bu Eronga qo'shimcha kuch va ertangi kunga ishonch beradi. Eron mamlakatida, qadimda mavjud bo'lgan zardushtiylik dinining asosi bo'lgan yovuzlik bilan kurashish falsafasi, Eronning xalqaro munosabatlardagi konstruksiyasida saqlanib kelmoqda. Eron Amerika va g'arb mamlakatlarini yovuzlik manbai sifatida ko'radi va boshqa mamlakatlarga ham bu retorikani uqtirishga harakat qiladi. Umuman olganda Eron diniy va madaniy jihatdan o'zini yetakchi o'ringa qo'yib, boshqa mamlakatlarni himoyachisi sifatida yadroviy qurolga ega bo'lish huquqi borligini takidlaydi. Agar Eron yadroviy qurolga ega bo'lsa, xalqaro arenada tartibot mutloq o'zgaradi. Bundan ko'rinib turibdiki, Eron o'zining konstruksiyasini sozlashda ideallashtirilgan modelni taqdim qilmoqda, lekin Eron taqdim etayotgan modelni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, Eronning siyosiy jarayondagi harakatlari va yo'nalganligi bu idealdan biroz uzoqligini ko'ramiz.

Eron islom respublikasida feminizm xarakatlari:

Feministik XM nazariyasi xalqaro siyosatning erkaklarga ham, ayollarga ham qanday ta'sir qilishini va XM intizomi doirasida qo'llaniladigan asosiy tushunchalarning (masalan, urush, xavfsizlik va boshqalar) o'zlari qanday jins ekanligini ko'rib chiqishni o'z ichiga oladi. Feministik XM nafaqat XMning davlatlar, urush, diplomatiya va xavfsizlikka bo'lgan an'anaviy urg'u bilan shug'ullanadi, balki feministik XM olimlari ham hozirgi global siyosiy iqtisodni gender qanday shakllantirishini ko'rib chiqish muhimligini ta'kidlaydilar. Shu ma'noda, XM da ishlaydigan feministlar va xalqaro siyosiy iqtisodda ishlaydiganlar o'rtasida aniq bo'linish yo'q.

Zamonaviy Eronda ayollar masalasi siyosiy va huquqiy ma'noda ko'rib chiqilmoqda, va eronlik ayollarning asosiy maqsadlari erkaklardan iqtisodiy mustaqillikka erishish va oliy kasbiy ta'lim olishdan iborat.

Hokimiyat tepasiga kelgan Oyatulloh Humayniy bundan buyon Muhammad payg'ambarning qizi Fotima o'zining ma'naviy fazilatlarini: Allohdan qo'rqish, hayo, fidoyilik va eriga vafodorligi tufayli ideal ayol hisoblanishini e'lon qildi. Shunday bo'lsada bir tarixiy faktni esdan chiqarish kerak emas, Fotima ko'pgina siyosiy jarayonlarda faol ishtirok etgan.

Jamiyatni to'liq islomlashtirish qat'iy gender segregatsiyasini, ko'plab taqiq va cheklovlarni nazarda tutgan, ularning buzilishi qonun bilan qattiq jazolangan. Ayrim o'ta og'ir jinoyatlar uchun o'lim jazosi nazarda tutilgan. Xususan, zinoda aybdor deb topilgan shaxslarni toshbo'ron qilish amaliyoti qayta yo'lga qo'yildi. Bu yangilik BMTning inson huquqlari bo'yicha komissiyasi e'tiborini tortdi. Eronda ayollar huquqlarining poymol etilishi masalasi xalqaro miqyosda muhokama qilindi.

Eron-Iroq urushi (1980-1988) xalq uchun yangi sinov bo'ldi, shuningdek mamlakat uchun og'ir iqtisodiy oqibatlariga olib keldi. Eronliklar bu inqiroz davridan o'zlarining siyosiy ambitsiyalarini amalga oshirish uchun imkoniyat sifatida

foydalanishdi. Natijada ayollarga elita harbiy-siyosiy tuzilmasi, Islom Inqilobi Qo'riqchilari Korpusida harbiy tayyorgarlikdan o'tishga ruxsat berildi. "Islom respublikasi" partiyasi qoshida xotin-qizlar jamiyati paydo bo'ldi, to'rt nafar ayol Islom kengashi majlisiga deputat bo'ldi.

Eron hukumati Imom Humayniyning ma'naviy merosidan kelib chiqib, ayollar masalasini islom qonunlarini yangicha tushunish orqali hal qilishga harakat qilmoqda. Endi, Eronning 40 yildan ortiq mavjudligidan so'ng, ehtiyotkor bayonotlar qilinmoqda, yangi islom madaniyatining paydo bo'lishi, ayollarning o'ziga xosligi va mavqeini diniy me'yorlar bilan mustahkamlash strategiyasi joriy etilmoqda, ayollarga nisbatan mas'uliyatni, jamoaviy ongni shakllantirish yo'lida mazmunli qadamlar qo'yilmoqda.

Ayollarning ijtimoiy-siyosiy huquqlarini ta'minlash bo'yicha yetarlicha ishlab chiqilmagan huquqiy normalar, ko'pincha bahs-munozaralar va noroziliklarni keltirib chiqaradi. Eronda ayollarning davlat boshqaruvida ko'proq ishtirok etishi bo'yicha tortishuvlar paydo bo'lmoqda. Hattoki, ayollarni davlat apparati va ba'zi lavozimlarda ishlashga ruxsat berilishi, shuningdek, kiyim kodi sifatida hijobga rioya qilish zarurati namoyon bo'ladi.

Zamonaviy Eronda feminizmning ikki turi mavjud – dunyoviy va diniy, ular butunlay boshqacha talqinlarga ega. Dunyoviy feminizm tarafdorlarining aksariyati siyosiy pozitsiyalari tufayli o'z mamlakatlarini abadiy tark etishga majbur bo'lishdi. Ular islomiy kiyinish qoidalarini bekor qilish, barcha darajadagi davlat lavozimlariga erishishda ayollar va erkaklarni tenglashtirish, ya'ni eronlik ayollarga o'zlarining madaniy o'ziga xosligini saqlab qolgan holda G'arb mo'tadil feministlari kurashayotgan barcha huquq va erkinliklarni berish tarafdori. Qoida tariqasida, bunday qarashlarning tarafdorlari Yevropa yoki AQSh da yuqori sifatli ta'lim olgan, ya'ni nafaqat boshqa madaniyat va mentalitet bilan aloqada bo'lgan, balki chet elda yashagan o'rta va yuqori sinf ayollaridir.

Islom yoki musulmon feminizmi islom qoidalariga asoslanadi. Bu dunyoviylikdan ko'ra radikalroq hisoblanadi: uning izdoshlari ilk islom ko'proq tenglik ideallarini ifodalagan va xudo tomonidan belgilab qo'yilgan jins haqidagi konservativ g'oyalarni buzgan deb ta'kidlaydilar. Faollarning fikricha, ayollarni ekspluatatsiya qilishning mohiyati Qur'on ma'nolarining noto'g'ri talqin qilinishidadir. Ular meros, kompensatsiya to'lash, sudda ko'rsatma berish, bolalarni vasiylik qilish, ajrashish huquqi, shuningdek, ijtimoiy huquqlar – davlat organlarida rahbarlik lavozimlarini egallash huquqlarini qayta ko'rib chiqish uchun kurashmoqda. Islom feministlarining strategiyasi "gender ijtihodi" deb ham ataladi, bunda Qur'on va Hadislarda to'g'ridan-to'g'ri ko'rsatma yo'q huquqiy masalalarda ayollar qaror qabul qilish va xulosa chiqarishni nazarda tutadi. Eslatib o'tamiz, Qur'on tafsiri an'anaviy ravishda faqat erkaklik paradigmasida ko'rib chiqilgan.

Ayni paytda ayollarni siyosatga jalb qilish tendentsiyasi sezilarli darajada kuchaymoqda. Xotin-qizlarning siyosiy maydonga kirishi yo'lidagi muhim qadam bo'lib, sud tizimiga ishg'a qabul qilinishi va hattoki ularning sudyalik lavozimlariga tayinlanishi mavjud, islom an'analariga zid bo'lgan hodisalar ro'y bermoqda. Hozirda Eron adliya tizimida 460 dan ortiq ayol faoliyat yuritmoqda.

Diniy konservatorlar musulmon feministlarining aksariyat talablarini islom tamoyillariga zid deb bilishadi, bundan tashqari ular "islom feminizmi" tushunchasini oksimoron deb atashadi. Ular ushbu ayollar harakatining islom dinining mafkuraviy tamoyillariga zid bo'lgan qator tamoyillarini aniqlaydilar: gumanizm, dunyoviylik, axloqiy

relativizm, individualizm, antropotsentrizm, irratsional erkinlik shular jumlasidandir. M. Zibayinejod islom feminizmi faqat g'arb mafkurasi va modernistik adabiyotga asoslangan islom tamoyillariga yangicha talqin berishga urinish, deb hisoblaydi. Uning mohiyati g'arbning mentalitetiga yot mafkuraviy oqimiga tayanadi.

Eron diniy feminizmi kamroq radikal xarakterga ega. Uning namoyondalari Qur'on va Hadislarni yanada qulayroq talqin qilish, shuningdek, yangi voqeiklarga mos keladigan fatvolar yozish orqali musulmon ayollarning mavqeini oshirishga harakat qilmoqdalar, bilimdon ilohiyot olimining har qanday masala bo'yicha islom tamoyillari va pretsedentlarga asoslangan qarorlari, musulmon huquqiy amaliyoti, "Dinamik fiqh" atamasi hatto fors tiliga ham kiritildi. Bu harakat ba'zan fors tilida "mahalliy feminizm" deb ham ataladi. Zamonaviy Erondagi barcha mafkuraviy yondashuvlar kabi diniy ziyolilik ham jamiyatni modernizatsiya qilishga qaratilgan bo'lishi kerak: din yangi avlod madaniyatiga mos keladigan talqinga muhtoj. Bu nuqtai nazar "Ayollar" va "Sage" nashrlarida yoritilgan.

Dunyoviy feministlar islom feminizmini tanqid qilib, Qur'onning ko'plab sub'ektiv talqinlari joiz bo'lganligi sababli, islomni mazmunli mafkuraviy harakatni shakllantirish uchun g'oyaviy asos deb hisoblaydilar. Islom feminizmi tarafdorlari, o'z navbatida, g'arb feministlari o'ta individualizm g'oyalari foydasiga oila va jamiyat manfaatlarini e'tiborsiz qoldirishda ayblanadi. Shuningdek, dunyoviy feministlar Islom Respublikasining siyosiy rejimini qabul qilmaslik, ma'naviy qadriyatlarga befarqlik, oila institutini qadrsizlantirish istagida ayblanadilar.

Eron tashqi siyosatida neomarksizm maktabining o'rni:

Neomarksizm – zamonaviy dunyo va xalqaro munosabatlar sharoitida klassik marksizm g'oyalarini rivojlantiruvchi nazariy yondashuv hisoblanadi. Iqtisodiy munosabatlar va sinfiy kurash, jahon siyosatining asosiy harakatlantiruvchi kuchi, degan qarashga asoslanadi. Neomarksistlar, xalqaro munosabatlar, iqtisodiy manfaatlar va ekspluatatsiya qilish maqsadi bilan belgilanadi, deb hisoblaydilar. Ular rivojlangan davlatlar, ayniqsa transmilliy korporatsiyalar rivojlanayotgan mamlakatlarni ekspluatatsiya qilish va nazorat qilish uchun o'zlarining iqtisodiy va harbiy kuchlaridan foydalanadilar, deb ta'kidlaydilar.

Ana endi, Eron tashqi siyosatini neomarksizm nazariyasiga asoslangan holda tahlil qilib ko'ramiz. Tepada zikr etib o'tkanimizdek, Eron tabiiy resurslarga boy davlat hisoblanadi, lekin shunday bo'lishiga qaramasdan o'zining resurslaridan haqli ravishda foydalana olmaydi. Buni aniqroq tushuntirib berish uchun bir tarixiy hodisani misol qilib ko'rsatishimizga to'g'ri keladi. Agar biz inqilobdan oldingi Erondagi, Muxammad Paxlaviy boshchiligidagi, podshoxlik tuzumiga asoslangan iqtisodni oladigan bo'lsak, Eronning tabiiy boyliklari, shu jumladan neft sanoati, g'arb mamlakatlari tarafidan, xususan, Amerika tomonidan ekspluatatsiya qilinganini ko'ramiz. Amerika neft qazib olishda, Eron uchun rad qilib bo'lmaydigan taklif berdi, oqibatda Amerika Eron neftining 50%ga sheriklik qildi.

Texnologik va yuqori darajada uyushgan kapitalni chetdan olib kirish, ishlab chiqarish va savdoning yuqori darajada kontsentratsiyasida ishlaydigan monarxiya rejimi, bir tomondan, g'arb monopoliyalarini boyitgan bo'lsa, ikkinchi tomondan, o'zining an'anaviy ijtimoiy-iqtisodiy bazasini tezda yo'q qilgani yetmaganidek, bo'shatilgan ishchi kuchini yangi kapitalistik tuzilmalarga integratsiya qilish uchun tegishli choralarni qo'llay olishmadi.

Chet ellik mutaxassislarni, asosan, amerikaliklarni saqlash va ularga xizmat ko'rsatish uchun katta mablag' sarflandi. 1977-yilda Shohga qarshi inqilob boshlanishidan oldin Eronda bunday mutaxassislar soni 50 ming kishidan oshdi. O'z xizmatlaridan katta daromadga ega bo'lib, oyiga o'rtacha 10 ming dollargacha, ular bir vaqtning o'zida Eron davlatida ekstraterritoriallik huquqidan foydalanishgan. Shunday qilib, Amerika tomonidan Eron eksplutatsiya qilindi, buning salbiy natijasi esa Eron xalqida aks-sado berdi.

Neomarksizm nuqtai-nazaridan qaraydigan bo'lsak, Eronda hokimiyat o'zgargandan keyin ham Eron to'laqonli mustaqillikga erisha olmadi. Chunki iqtisodiy jihatdan bugungi kunga qadar eksplutatsiya bo'lib kelmoqda, faqatgina explutator sifatida Amerika o'rnini Xitoy va Rossiya egalladi. Eron Islom Respublikasiga qo'yilgan og'ir sanksiyalar tufayli Eron, Rossiya hamda Xitoyga iqtisodiy hamda xarbiy jihatdan qaram hisoblanadi. Rasmiy OAV orqali uch davlat o'rtasidagi munosabatlarga o'zaro foydali iqtisodiy munosabat deb izoh berilishi mumkin, lekin aslida, tahlil qilib ko'rilsa, qaysi tomon ko'proq foyda ko'rayotganini, tomonlarda tenglik mo'tadilligi yo'qligini ko'ramiz. Xitoy Eronning sanksiya ostidaligidan foydalanib eksport hamda importda o'zining qoidalarini o'rnatadi, Eron ham bu qoidalarga rioya qilishga majbur, chunki Eron o'z mahsulotini sotishda uzun alternativlar ro'yxatiga ega emas. Shu sababdan ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy munosabatda Eron to'g'ridan to'g'ri eksplutatsiya obektiga aylanadi. Eron Xitoyga 48% hom va tayyor mahsulotlarini eksport qiladi, o'rniga esa Xitoydan sifatsiz texnika olishga majbur bo'ladi, uning ustiga Xitoyning valyuta bilan o'yiniga ham ko'z yumadi.

G'arb sanksiyalari, Eronning gaz va neft mahsulotlarini, arzon narxlarda sotishga majbur qilmoqda, bu holat marksizmdagi burjuaziyaning foyda ko'rish maqsadida proletariyatning qo'shimcha ish vaqti uchun haq to'lamasdan o'z foydasiga ortirma foyda qo'shish jarayonini eslatadi. Bu holat Eron xalqi uchun salbiy ta'sir ko'rsatmoqda, yani Eroning aksariyat sinfi kambag'allashib bormoqda, boy sinfi esa yanada boyib bormoqda. Bu holat kopitalning faqatgina tor doiradagi brujuaziya sinflarida to'planishi bilan boholanadi. Erondagi asosiy kopitalistlar mullalar hisoblanadi. Ular kapitalni aylantirish o'rniga ko'p hollarda o'zlarida ushlab turadilar. Eron islom davlatiga aylangandan so'ng ko'pgina iqtisodiy obyektlar mullalarning qo'lga o'tib ketdi, va yillar davomida faoliyat yuritib kelayotgan zavodlar kasodga uchradi. Bunga "kafshe milliy" deb nomlangan yaqin sharqdagi oyoq kiym ishlab chiqarish bo'yicha gigant kompaniyaning kasodga uchrashi misol bo'la oladi.

Eron iqtisodiyotining yomonlashib borayotganining sabablaridan yana biri, spekulyativ operatsiyalarning juda ko'pligi hisoblanadi. Bu esa Erondagi dollorlik millionerlarning ko'payishi va ishchi sinfning yanada kambag'allashib ketayotgani bilan izohlanadi. Solishtirib ko'rish uchun Saudiya amirligini olaylik, uyerda dollorlik millionerlar soni qariyb 210 mingta, Eronda esa 250 mingtani tashkil etadi. Lekin bu bilan Eron xalqining turmush tarzi yaxshilanayotgani yo'q, balki kambag'allik ortib bormoqda. Bu yerdan ko'rinib turibdiki, neomarksizm nuqtai-nazaridan Eronning tashqi munosabatidagi qaramlik va explutatsiya qilinishi, Eronning ichki iqtisodiyotida sinflar o'rtasidagi analogik xolatni taqazo qilmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI"

1. Nicholas Onuf. On the evolution of social constructivism, turns in ir, and a discipline of our making
2. Улугбек Азизов. Конструктивизм в международных отношениях
3. Stanford Encyclopedia of Philosophy Archive. <https://plato.stanford.edu/archives/fall2024/entries/constructivism-political/>
4. Dina Esfandiary and Ariane Tabatabai. Triple axis iran's relations with russia and china
5. Павла Рипинская. Иран. Экономика под санкциями Павла Рипинская
6. Вахтеркина Мария Юрьевна. Значение феминизма в теории международных отношений
7. Софья Малашонок. Феминизм как философское и социологическое направление. <https://www.geopolitika.ru/article/feminizm-v-mezhdunarodnyh-otnosheniyah>
8. Эсмаили Самира. Повышение роли женщин в парламенте Ирана после Исламской революции 1979 г
9. Andrew Hanna. Part 2: Profiles of Women Politicians, Activists
10. <https://news.un.org/ru/story/2019/11/1367001>
11. И.В. Кулагин. Шиитский ислам и имамат в современном Иране
12. А.Т. Isirailova. Марксизм (неомарксизм) в контексте международных отношений
13. <https://topwar.ru/223887-persidskij-neftjanoj-perevorot-uroki-avgusta-53-go.html>
14. https://studbooks.net/538872/istoriya/neft_obschestvenno_politicheskoe_raz_vitie_irana
15. Павла Рипинская. Иран. Экономика под санкциями.